

2016 yilning 25 iyundagi
AJ “O’zmetkombinat”
Aksiyadorlari umumiy yig’ilishi qarori
bilan “TASDIQLANGAN”
33 – sonli bayonnoma
Gerbli muhr

**AJ “O’ZMETKOMBINAT” NING
AXBOROT SIYOSATI
TO’G’RISIDAGI NIZOMI**

MUNDARIJA

I.	UMUMIY QOIDALAR	3
II.	AXBOROT SIYOSATNING ASOSIY TAMOYILLARI	3
III.	QONUNCHILIKKA BINOAN MAJBURIY RAVISHDA OSHKOR ETILADIGAN MA'LUMOTLAR RO'YXATI, ULARNI OSHKOR ETISH MUDDATI VA TARTIBI ...	4
IV.	QO'SHIMCHA MA'LUMOTLARNI OSHKOR QILISH RO'YXATI VA TARTIBI	5
V.	AJ NING BOSHQARISH ORGANI A'ZOLARI, MANSABDOR SHAXSLAR, XODIMLARINING MANFAATDOR SHAXSLAR BILAN MA'LUMOTLAR ALMASHINISH TARTIBI.....	5
VI.	JAMIYATNING AXBOROT SIYOSATIGA RIOYA QILISHNI NAZORAT QILISH CHORALARI	6
VII.	YAKUNIY QOIDALAR	6

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Axborot siyosat haqidagi ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish" va "Qimmatli qog'ozlar bozori haqida" Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining 02.04.2014 dagi 176 – sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha choralar" va 31.12.2013 dagi 355- sonli "O'zbekiston Respublikasidagi axborot – kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirish holatini baholash tizimini kiritish choralari haqida" Qarorlari, qimmatli qog'ozlar bozoriga ma'lumotlarni taqdim qilish va chop etish Qoidalari (31.07.2012 dagi 2383 – sonli kirish raqami), Aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati samarasini oshirish va korporativ boshqarish tizimini takomillashtirish Qo'mitasi majlisining 31.12.2015 dagi 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqarish Kodeksiga binoan ishlab chiqilgan.

Ushbu Nizom majburiy ravishda oshkor etiladigan ma'lumot va hujjatlar ro'yxati, shuningdek, ularni "O'zmetkombinat" AJ ga taqdim qilish tartibi va muddatlarini belgilaydi.

2. Axborot siyosatining maqsadi bu – aksiyadorlar, sarmoyachilar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari va boshqa manfaatdor shaxslarning (keyingi o'rinlarda manfaatdor shaxslar) jamiyat va uning faoliyati haqida ishonchli ma'lumotlar bilan ehtiyojini qondirish yo'li bilan jamiyat faoliyatining ochiqligi va tiniqligini ta'minlash.
3. Axborot siyosat manfaatdor shaxslarni jamiyat va uning faoliyati haqida, sarmoyaviy va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ahamiyatli, aniq ma'lumotlarni olish, shuningdek jamiyat haqida konfidensial ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha huquqlarni to'liq amalga oshirishga qaratilgan.
4. Ma'lumotni tijorat siriga kiritish, uni olish tartibi va shartlari jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Tijorat siri haqida" va qonunchilikning boshqa aktlarga binoan belgilanadi.

II. AXBOROT SIYOSATNING ASOSIY TAMOYILLARI

5. Axborot siyosatning asosiy tamoyillari bo'lib axborot manbaining muntazamligi, operativligi, ochiqligi, to'liqligi, teng huquqligi, balanslanganligi, himoyalanganligi hisoblanadi.
6. Muntazamlik tamoyili jamiyat tomonidan manfaatdor shaxslarga jamiyat haqida ma'lumotlarni doimiy ravishda berishga yo'naltirilgan.
7. Operativlik tamoyili jamiyat qisqa muddatlarda manfaatdor shaxslarni jamiyatning moliyaviy – xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan, shuningdek, manfaatlariga ta'sir ko'rsatadigan e'tiborli voqea va faktlar haqida ma'lumot berishini anglatadi.
8. Axborotni ochiqligi deganda manfaatdor shaxslarni oshkor etiladigan axborotga erkin, majburiyatlarsiz va tanlanmaydigan kirishni ta'minlaydigan, o'z faoliyati haqida ma'lumotlar tarqalish kanal va yo'llardan jamiyat foydalanishini bildiradi.
9. To'liqlik tamoyili – Jamiyat barcha manfaatdor shaxslarga haqiqatga to'g'ri keladigan ma'lumotni shu jumladan o'zi haqida manfiy ma'lumotni oshkor etishdan bo'yin tovlamay, jamiyat faoliyati natijalari haqida, shuningdek, jamiyat haqida to'liq tushuncha aks ettiradigan ma'lumot beradi.
10. Teng huquqlilik tamoyili barcha manfaatdor shaxslarga jamiyat faoliyati haqida axborot olish uchun teng huquqlarni ta'minlash.
11. Balanslangan tamoyili Jamiyatni ochiqlilik va tiniqlik orasidagi balansga rioya qilish va uning tijorat manfaatlarini ta'minlashni ko'zda tutadi. Bunda quyidagilar majburiy shartlar hisoblanadi:

Konfidensial axborotni himoya qilish;

Qonunchilik va Jamiyatning ichki hujjatlari bilan belgilangan insayderlik axborotini tarqatish va foydalanish qoidalariga roya qilish.

12. Himoyalanganlik tamoyili tijorat yoki boshqa sir sanaladigan yoki konfidensial ma'lumot hisoblanadigan axborotni qonunchilik bilan ruxsat etilgan himoya qilish va yo'li va vositalaridan foydalanishni ko'zda tutadi.

III. QONUNCHILIKKA BINOAN MAJBURIY RAVISHDA OSHKOR ETILADIGAN MA'LUMOTLAR RO'YXATI, ULARNI OSHKOR ETISH MUDDATI VA TARTIBI

13. Oshkor etilishi majbur bo'lgan axborotni Jamiyat O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish", "Qimmatli qog'ozlar bozori haqida" Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining 02.04.2014 dagi 176 – sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha choralar" va 31.12.2013 dagi 355- sonli "O'zbekiston Respublikasidagi axborot – kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirish holatini baholash tizimini kiritish choralari haqida" Qarorlari, qimmatli qog'ozlar bozoriga ma'lumotlarni taqdim qilish va chop etish Qoidalarini (31.07.2012 dagi 2383 – sonli kirish raqami), va qonunchilikning boshqa aktlariga binoan oshkor qiladi.
14. Axborotni majburiy ravishda oshkor qilish:

Korporativ axborot Yagona portalida (qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida);

Fond birjasining rasmiy veb saytida (www.uzse.uz);

Jamiyatning korporativ veb saytida;

Ommaviy axborot vositalarida amalga oshiriladi.

15. Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish vakolatli davlat organi va fond birjasining rasmiy veb saytida oshkor etilishi majburiy bo'lgan hujjatlar quyidagilar hisoblanadi:

Emission qimmatli qog'ozlar prospekti (qimmatli qog'ozlarni ommaviy joylashtirish);

Jamiyatning yillik hisoboti, shu jumladan, moliyaviy hisobotlarni Xalqaro standartlariga binoan tuzilgan hisobotlar;

Birinchi kvartal, yarim yillik va to'qqiz oy yakunlari bo'yicha jamiyat hisoboti;

Jamiyat faoliyatida muhim dalillar haqida axborot.

Jamiyat yuqorida ko'rsatilgan axborotlarni Axborotlarni qimmatli qog'ozlar bozoriga taqdim etish va chop qilish qoidalarida belgilangan muddatlarda, tartibda va shaklda oshkor qiladi (31.07.2013 dagi ro'yxatga olish raqami 2383).

16. Jamiyat qimmatli qog'ozlarini fond birjasining birja kotirovka varaqasiga kiritish va (yoki) bo'lgan hollarida, Jamiyat birja byulleteni Nizomi talablariga ko'ra barcha zarur ma'lumotlarni oshkor qiladi.
17. Jamiyat rasmiy veb saytiga (WWW.UZBEKSTEEL) ega bo'lib, Vazirlar Mahkamasining 02.04.2014 dagi 176 – sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha choralar" Qarorida belgilangan ro'yxatidagi ma'lumotlarni oshkor qilishini ta'minlaydi.
18. Quyidagi axborotlar ommaviy axborot vositalarida majburiy oshkor etilishi kerak:
Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish haqida xabar;
Jamiyat joylashgan manzili (pochta manzili) va elektron pochta manzili o'zgartirilishi haqida ma'lumot;

Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan jamiyat aksiyadorlariga aksiya yoki aksiyaga konvertatsiya qilinadigan emission qimmatli qog'ozlarni sotib olish haqida taklif;
Jamiyat tomonidan aksiyalarni sotib olish haqida ma'lumot;
Jamiyatni tugatish, shuningdek, kreditorlarning talab qilish tartibi va muddati haqida ma'lumot.

IV. QO'SHIMCHA MA'LUMOTLARNI OSHKOR QILISH RO'YXATI VA TARTIBI

19. Jamiyat rasmiy veb saytini ingliz, rus va manfaatdor shaxslar uchun qulay boshqa tillarda yaratish, undagi davlat tilida barcha ma'lumotlarni boshqa tillarga tarjimasini joylashtirish yo'li bilan takomillashtirishni taminlaydi.
20. Jamiyat o'z rasmiy veb saytida quyidagi qo'shimcha ma'lumotlarni oshkor qiladi:

Korporativ boshqarish kodeksi tavsiyalarini qabul qilish va ularga rioya qilish majuriyatini olganligi haqida ma'lumot;

Ijroiya organ, shu jumladan ushbu jamiyatda ishlash muddati haqida ma'lumot;

Jamiyat jroiya organi va korporativ boshqarish tizimi faoliyatining samarasini baholash natijalari;

Jamiyat aksiyalarining 20 foizdan ortiq aksiyalariga ega bo'lgan aksiyadorlari haqida ma'lumot;

Sof foydani taqsimlanishini asoslash, dividendlar miqdori, ularni Jamiyatda qabul qilingan dividend siyosatiga mos kelishini baholash, shuningdek, zarur hollarda, jamiyat rivojlanishiga yo'naltirilgan sof foydaning sof foyda miqdorini iqtisodiy asoslash;

kutilayotgan sof foydani ko'rsatgan holda sarmoya loyihalari shaklida amalga oshiriladigan kengayish, rekonstruksiya va texnik qayta jihozlanish bo'yicha jamiyat rejalari;

aksiyalar kotirovkasi, shuningdek fundamental va texnik tahlil natijalari haqida ma'lumot mavjud bo'lganida, mutaxassis, ekspert va maslahatchilar izohlari va bashoratlari;

bo'lgan hollarda, jamiyat biznesi bo'yicha kapital qiymati ko'rsatkichlari va bu ko'rsatkicharning qiymatini asoslagan holda jamiyat kapitalining o'rtacha hisoblangan qiymati;

xayriya (homiylilik) yoki beminnat yordam ko'rsatish (olish) va bu haqida qaror qabul qilish tartibi, shartlari haqida ma'lumot, shuningdek, amalda ko'rsatilgan (olingan) xayriya (homiylilik) yoki beminnat yordam haqida ma'lumot.

21. Kuzatuv kengashi va ijroiya organiga mukofot va kompensatsiya miqdori haqida ma'lumot aksiyadorlarning umumiy majlisida oshkor etiladi va aksiyadorlarning umumiy majlisi bayonnomasiga kiritiladi.
22. Jamiyat haqidagi ma'lumotlarni oshkor etilishini Jamiyat ma'lumotlarni oshkor etish uchun qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa manbalarda ham oshkor etilishini ta'minlaydi.

V. AJ NING BOSHQARISH ORGANI A'ZOLARI, MANSABDOR SHAXSLAR, XODIMLARNING MANFAATDOR SHAXSLAR BILAN MA'LUMOTLAR ALMASHINISH TARTIBI

23. Boshqarish o'rgani a'zolari, mansabdor shaxslar, AJ xodimlari va manfaatdor shaxslar orasida ma'lumotlar almashinish uchun Jamiyat ma'lumot almashinishni amalga oshiradigan ma'sul shaxsni tayinlaydi.
24. Manfaatdor shaxslarning ushbu Nizom bilan ko'zda tutilgan ma'lumotlarni berish haqida yozma (elektron) talabiga binoan, Jamiyatning ma'sul xodimi bir hafta ichida agar qonunchilikda boshqa muddat ko'zda tutilmagan bo'lsa, barcha kerakli ma'lumotlarni elektron shaklda beradi.

25. Hujjat nusxalarini taqdim qilish zarurati tug'ilgan hollarda manfaatdor shaxs ushbu hujjatlardan nusxa olish va ularni jo'natish uchun ketgan xarajatdan ortmaydigan miqdorda to'lovlarni amalga oshiradi.
26. Aksiyadorlar xizmat, tijorat yoki qonun bilan himoya qilinadigan boshqa sir saqlanadigan jamiyat va uning faoliyati haqidagi axborotni oshkor etishga haqi yo'q.

VI. JAMIYATNING AXBOROT SIYOSATIGA RIOYA QILISHNI NAZORAT QILISH CHORALARI

27. Jamiyatning korporativ kotibi (agar bo'lsa) yoki aksiyadorlar bilan korporativ aloqa Boshqarmasining ma'sul xodimi, hisobchi, shuningdek, bunday vakolatlar berilgan shaxs ushbu Nizomda ko'zda tutilgan ma'lumotlarni oshkor qilish uchun ma'suldir.
Ijroiya organi rahbari va uning muovinidan tashqari boshqa shaxslar jamiyat nomidan chiqish qilish huquqiga ega emas.
28. Jamiyat ijroiya organi rahbari oshkor qilinayotgan axborotning to'liqligi, ishonchliligi va o'z vaqtida oshkor etilishi uchun ma'sul.
29. Jamiyat kuzatuv kengashi har chorakda ushbu Nizomning talablari bajarilishi haqida ijroiya organ hisobotlarini tinglaydi.

VII. YAKUNIY QOIDALAR

30. Jamiyat ijroiya organi ushbu Nizomga binoan oshkor etiladigan ma'lumotni tashkil qilish, holati va ishonchliligi uchun ma'suldir.

Ma'lumotlarni o'z vaqtida, sifatli, ishonchli va to'liq oshkor etish ijroiya organ faoliyati samaradorligini baholash me'zonlari va unga mukofot (bonus) to'lash shartlaridan biri hisoblanadi.

31. Ushbu Nizom talablarini buzganlik uchun aybdor shaxslar o'rnatilgan tartibda javobgar hisoblanadilar.
32. Ushbu Nizom Jamiyatning kuzatuv kengashi qarori bilan majlisda ishtirok etayotgan yoki ovoz berishda sirtqi ravishda ishtirok etayotgan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan tasdiqlanadi.
33. Ushbu qoidalarga o'zgarishlar va qo'shimchalar Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan qaroriga ko'ra kiritiladi.
34. Agar ushbu Nizomning alohida moddalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va / yoki Jamiyat Ustaviga zid kelsa, bu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va bu moddalarda tartibga solinadigan masalalar bo'yicha, ushbu Nizomga kerakli o'zgartirishlar kiritilmagunicha, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va / yoki Jamiyat Ustaviga binoan yo'l tutiladi.